
13-oktyabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni munosabati bilan joylarda profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda

Dunyoda ilmiy-texnik taraqqiyot qanchalik rivojlanmasin, tabiat va inson o'rtasidagi ayrim muammolar, jumladan tabiiy ofatlar xavfi yildan-yilga ortib, jiddiy talafotlarga sabab bo'lmoqda.

13-oktyabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni doirasida Qo'shtepa tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan profilaktik uchrashuv hamda davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

Jumladan ana shunday tadbirlar tumandagi 46 va 47-umumiy o'rta ta'lim maktablarida bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida o'quvchilarga tabiiy ofatlar, ularning turlari va talafotlari to'g'risidagi ma'lumotlar yetkazilib, ular sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish usullari o'rgatildi. Shu bilan birga, yong'in-qutqaruv amaliyotida foydalaniladigan maxsus texnika va kuch-vositalarning texnik imkoniyatlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tildi.









2024-10-08 16:36:55